

BURG‘ILASH ISHLARINI BAJARISHDA SANOAT XAVFSIZLIGI

Dilmurodov G‘olibbek Sobirjon o‘g‘li

Geologiya fanlari universiteti

E-mail: golibbekdilmurodov@gmail.com

***Annotation:** Labor protection activities are aimed at creating healthy and safe working conditions, preventing occupational diseases and improving their health. Creating healthy and safe working conditions in all enterprises, organizations and institutions is entrusted to the managers of the enterprise, office, organization. The administration is obliged to prevent industrial injuries and to introduce improved safe technical means, to ensure sanitary-hygienic conditions, to use tools to prevent the occurrence of occupational diseases among workers.*

***Key words:** drilling, well, equipment, oil and gas, security, tool, engineer-technician.*

***Аннотация:** Мероприятия по охране труда направлены на создание здоровых и безопасных условий труда, предупреждение профессиональных заболеваний и оздоровление. Создание здоровых и безопасных условий труда на всех предприятиях, в организациях и учреждениях возлагается на руководителей предприятия, конторы, организации. Администрация обязана предупреждать производственный травматизм и внедрять усовершенствованные безопасные технические средства, обеспечивать санитарно-гигиенические условия, применять средства предупреждения возникновения профессиональных заболеваний среди работающих.*

***Ключевые:** бурение, скважина, оборудование, нефть и газ, безопасность, инструмент, инженер-техник.*

Burg‘ilash ishlari o‘zining xususiyatiga muvofiq ko‘pgina o‘ziga mos bo‘lgan tomonlarga ega.

Ulardan quyidagilarni ajratish muhimdir:

- burg‘ilash ishlari to‘xtovsiz kechayu–kunduz har xil iqlimiy sharoitlarda olib boriladi;

- burg‘ilash maydonida bo‘lgan burg‘ilash xodimlari qisman iqlimiy omillardan va tashqi muhitning ta‘siridan himoyalangan;

- quduq qurilishida ba'zi bir jarayonlar va operatsiyaning sikllari o'zining yuqori jadalligi bilan ajralib turadi va burg'ilash brigadasining a'zolarida kuchli ta'sirlanishni hosil qiladi;

- murakkab sharoitlarda quduqlarni burg'ilashda burg'ilash jihozlarida chegaraviy kattalikgacha yuklamalarni paydo bo'lishi, tebranishlar, shovqinlar aniq asab – psixologik kuchlanishlarni keltirib chiqaradi;

- kam o'rganilgan tumanlarda ayniqsa, yuqori qatlam bosimli oraliqlarni burg'ilab ochishda kutilmagan xavfli holatlarni paydo bo'lish ehtimoligining mavjudligi.

Burg'ilash xodimlarining yashash joylarini uzoqligi, ularni ish joyiga yetib kelguniga qadar uzoq vaqt sarflanishi va charchash holatlarini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda burg'ilash korxonasi ishchi xodimlari uchun normal sharoitni yaratish va quduq qurilishida xavfsizlikni ta'minlashi zarur hisoblanadi.

“O'zbekneftgaz” Milliy Xolding Kompaniyasi tomonidan neft va gaz reglamentda keltirilgan bir qator asosli hujjatlarda sanoatda xavfsizlik qoidalarini bajarilishi bo'yicha burg'ilash korxonalarining majburiyati keltirilgan.

Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmati to'g'ridan to'g'ri bosh muhandisga bo'ysunadi va uning o'rinbosari boshqaradi. BIB dagi mehnatni muhofaza qilish bo'limi ham bosh muhandisga bo'ysunadi. Bo'limning asosiy vazifasi–ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, jarohatlanishni oldini oluvchi tashkiliy texnik ishlanmalarni va sanitar – gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish, ilmiy texnik yutuqlarni qo'llagan holda ishlab chiqarish madaniyatini oshirish ishlari kiradi. Mehnatni muhofaza qilish BIB hamma bo'limlardagi mehnatni muhofaza qilish holatidagi hamma ma'sullikni olib boradi va xodimlarning ma'sulligi ham muhandisga yuklanadi.

Bosh muhandis va BIB kasaba uyushmasi mahalliy nazorat tashkilotlari bilan kelishilgan holda kasblar va ishlarning turi bo'yicha harakatdagi xavfsizlik qoidalari asosida ishlangan namunaviy ko'rsatmalarning meyorlarini tasdiqlaydilar. Har uch yil davomida ishlab chiqarish ko'rsatmalari qayta ko'rib chiqiladi va qayta tasdiqlanadi.

BIB nomeklaturasidagi tadbirlarning rejasini chiqaradi. Unda baxtsiz hodisalarni, ishlab chiqarishdagi kasalliklarni va umumiy ish sharoitini yaxshilash bo'yicha oldini oluvchi tadbirlar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari tashkiliy–texnik tadbirlarning rejasida jamoa shartnomasida keltirilgan ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilashni amalga oshirish tadbirlari ham ko'rib chiqiladi.

Burg'ilash ishlaridagi xavfsizlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan eng katta ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar quyidagilar:

- burg'ilash xodimlarini malakasini oshirish, ishlab chiqarishda ishchilarning amaliy tajribalarini to'plash;
- burg'ilash ishlarini olib borishdagi xavfsizlik qoidalari bo'yicha tizimli ko'rsatmalar berish va ularni bilimni tekshirish;
- mehnatning tarkibini mustahkamlash;
- jihozlarni va qo'llaniladigan asboblarning texnik holatini tizimli nazorat qilish, buzilib qolishlarni oldini olish;
- umuman yangi mukammal texnikalarni hamda burg'ilash brigadasining ishlarini yengillashtiruvchi qo'l mehnatini mexanizatsiyalashtirish vositalarini va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayonlarini o'zlashtirish;
- ishlab chiqarishni yangi turdagi nazorat-o'lchov apparaturalari, berkitish vositalari va avariya qarshi himoyalovchi hamda xavfli holatlar sodir bo'lganda avtomatik signal beruvchi tizimlar bilan jihozlash.

Burg'ilash brigadasi a'zolarining ishlab chiqarishda jarohatlanishi, kasbiy tayyorgarligini yetishmasligi, ishlarni bajarish qoidalarini va operatsiyani bajarish tartibini bilmasligi, mehnat tartiblarini qo'pol buzishlari, texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasliklari hamda konstruktiv kamchiliklar va qo'llaniladigan mexanizmlar va asboblarni sifatsiz tayyorlanganligi sababli kelib chiqadi. Neft va gaz sanoati xavfsizlik qoidalariga va qo'yilgan talablarga og'ishmasdan qattiq rioya qilish, burg'ilash ishlarining xavfsizligini ta'minlashning asosidir.

Hamma qoidalar talab qilish tavsifi bo'yicha ko'rsatuvchi, taqiqlovchi va ruxsat etuvchi turlarga ajratiladi.

Korxonaning kerakli nomenklaturasi bo'yicha ko'rsatuvchi (bo'yurtmachi) qoidalar aniqlangan bo'ladi, navbatdagi harakatlarni xavfsizligini ta'minlaydi.

Taqiqlovchi qoidalar ko'rsatilgan holatlarda harakatni man qilishni yuklaydi. Ruxsat beruvchi qoidalarda aniq oraliqlarda yoki chegaralarda harakatlanishni havfsiz ekanligi ko'rib chiqilgan.

Yuqoridagi harakatdagi qoidalarga muvofiq hamma ishlarni montaj qilish tugallangandan so'ng, bo'sh harakatda yurguzib sinaladi va burg'ilash qurilmasini maxsus komissiya qabul qiladi va bunda davlat texnik nazoratidan vakil qatnashadi. Komissiyaga quduqni qazish bo'yicha akt, burg'ilash jihozlariga texnik hujjatlar, quduqni qurishga geologik-texnik naryad, burg'ilash nasoslari, bosim chizig'ini va tal blokini ko'tarishni chegaralanish to'g'risidagi akt, elektr jihozlarini ishga qo'shish, qurilmalarning yerga ulanish qarshiligini meyoriga mos kelishi to'g'risidagi va holatini tekshirishning akti taqdim qilinadi. Komissiya burg'ilash qurilmasini foydalanishga topshirish haqidagi akti yozadi. Unda burg'ilash jihozlarini tayyorgarligini tekshirish natijalari, burg'ilash qurilmasi jamlanmasining to'liqligi, jihozlarning texnik holati,

nazorat–o‘lchov apparatlari jamlanmasining to‘liqligi, kichik mexanizatsiya vositalarining mavjudligi, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha avtomatizatsiyani va moslamalarni mavjudligi hamda boshqalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘z ifodasini topadi. Burg‘ilash ishlarini olib borish bo‘yicha ustada va burg‘ilovchilarda quduqni burg‘ilash bo‘yicha bilimga ega ekanliklari tekshiriladi.

Davlat texnik nazorati vakili burg‘ilash qurilmasini ishga tushirishga tayyor ekanligi to‘g‘risida akti yozadi. Burg‘ilash ishlariga va uning ishlab chiqarishiga rahbarlik qilishda maxsus bilimga yoki burg‘ilash ishlarini olib borishni mas‘ullik huquqi bo‘lmagan shaxslarga ruxsat berilmaydi.

Ishga tayyorlangan burg‘ilash qurilmasi normativ bo‘yicha kurib chiqilgan moslamalar, qurilmalar va asboblardan jihozlangan bo‘lishi kerak. Burg‘ilashda yong‘in uchiruvchi vositalarning ro‘yxati bo‘yicha mavjudligi va uni yong‘in nazorati tashkilotlari bilan kelishilgan bo‘lishi kerak. Burg‘ilash brigadasi telefon yoki doimiy radio aloqasi bilan ta‘minlangan bo‘ladi.

Ishlarni bajarish davrida jihozlarni va burg‘ilash minorasini texnik holati tekshiriladi. Mexanik va burg‘ilash ustasi birgalikda burg‘ilash minorasi ikki oyda bir marta nazoratdan o‘tkazadi hamda jurnalda burg‘ilash jihozining texnik holati to‘g‘risidagi yozuv ruyxatdan o‘tkaziladi. Nosoz bo‘lgan burg‘ilash jihozlardan foydalanish taqiqlanadi.

Har bir xodim ishga kirishishdan oldin shu joyning holatini, jihozlarini, asboblarni va moslamalarini ishga sozligini va tayyorligini hamda texnika xavfsizlik qoidalariga javob berishini tekshiradi. Burg‘ilovchi smenani topshirishda jurnalga jihozlarni texnik holati to‘g‘risida vaxtani jurnalida hamma mavjud bo‘lgan jihozlarni, nazorat o‘lchov apparaturalarni, asboblardan va ularning ishga yaroqsiz ekanligi to‘g‘risida yozadi va ular haqidagi ma‘lumotlar bilan navbatdagi smenani ogohlantiradi.

Vaxtaning tarkibi to‘liq bo‘lmaganda tushirish-ko‘tarish operatsiyalariga kirishish va o‘tkazishni olib borish taqiqlanadi.

Burg‘ilash ishlariga maxsus komissiyaning tekshiruvidan, ko‘rsatmasidan, ishlab chiqarish o‘qishidan, sinovdan o‘tmagan va bilimi tekshirilmagan ishchilarga ruxsat berilmaydi. Ko‘rsatma vaqtida burg‘ilash korxonasi va alohida turdagi ishlarni bajarishga bog‘liq bo‘lgan texnika xavfsizligi bo‘yicha maxsus savollar to‘g‘risidagi umumiy masalalar tushuntiriladi. Korxonada maxsus yo‘ruqnoma jurnali yuritiladi, bu jurnalda xodimlarning bilimlari haqidagi ma‘lumotlar yozib boriladi. Ishchilarning ishlarini qabul qilishdagi xavfsizliklar bo‘yicha har yili bilimlarni tekshirish ishlari olib boriladi.

Rahbar xodimlarni va muhandis texnik xodimlarni texnika xavfsizligi bo'yicha qoidalarni va yo'riqnomalarni bilishi va namunaviy ko'rsatmalarga ega bo'lishi maxsus komissiya orqali tekshiriladi. Maxsus komissiya BIB boshlig'i yoki bosh muhandis ishtirokida ruxsat berish uchun imtihondan o'tkaziladi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi holatini nazorat qilishga katta etibor beriladi. Burg'ilashda texnika xavfsizligi holatini tekshirish bo'yicha "Jurnal" yuritiladi, unda texnika xavfsizligi bo'yicha topilgan nuqsonlar yoziladi va ularni bartaraf qilishdagi ko'rsatmalar to'ldiriladi. Texnika xavfsizligi holatini nazorat qilishni BIBning o'zi tashkillashtiradi hamda davriy holatda yuqori tashkilotlar ham amalga oshirib turadi. Nazorat qilish vazifasi obyektga kelgan har bir BIBning muhandis texnik xodimlari uchun majburiyatlar almashtirilib turiladi. U texnika xavfsizligi holatini tekshirishga va texnika xavfsizligi yo'riqnomasi bo'yicha topilgan kamchiliklarga chora ko'rib bartaraf qilishga majburdir.

Mehnat qonunchiligini va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini bajarilishiga rioya qilish vakolati berilgan maxsus davlat texnik nazorat tashkiloti va kasaba uyushmasining texnik inspeksiyasi amalga oshiradi. Kasaba uyushmasining texnik inspeksiyasida texnik inspektor shtati mavjuddir.

XULOSA

Texnik inspektor lavozimiga oliy yoki o'rta texnik ma'lumotga ega bo'lgan, shu tarmoqdagi ishlab chiqarishda uch yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lgan mutaxassislar tayinlanadi. Texnik inspektor doimiy xizmat ko'rsatadigan tashkilotga borib, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish talablarini bajarilishini nazorat qiladi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlanishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga, mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga, baxtsiz hodisalarni va professional kasalliklarni oldini olishga erishadi, bo'yruqnomalarning korxonada tashkillashtirishni tekshiradi va ishni xavfsiz olib borilishi bo'yicha ishchilarni o'rgatadi, muhandis–texnik xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlarni, xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoida va normalarni bilishini, mehnat qonunchiligining holatini va hokazolarni nazorat qilib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aminov A.M. Neft va gaz quduqlarini qurish asoslari. Toshkent – 2010, 410 bet.
2. Aminov A.M., Eshpo‘latov T.P. Neft va gaz ishida falokat va asoratlar. T. : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010. – 320 b.
3. Amirov A.A. “Gorizontal quqlarda mahsuldor qatlamlarni ochish va quduqlarni o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish”, Qarshi MII2014 y.-88 bet.
4. Асилбеков, Б.К., Калиланова, К.А., Жапбасбаев, У.К. Об эффективности технологии радиального бурения по сравнению с вертикальной скважины. Республиканский журнал «Izdenis»-«Поиск». Алматы. 2009. №4. – С.54-58.
5. K. Hakimov B. Soatov A. Ravshanov «Совершенствование схемы расположения геотехнологических скважин»Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7